UO‘K 811.512.133‘373.7:398.22

DOSTON FRAZEOLOGIYASI TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI: TALQIN VA TASNIF

Axmedov Hakim Yarashevich,
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq dostonlari frazeologiyasining nazariy asoslari, ularning talqini va tasnifi masalalari yoritilgan. Muallif doston matnlarida uchrovchi frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va uslubiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Frazeologizmlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi, ularning badiiy ifoda imkoniyatlari va dostonlarning epik tizimidagi o‘rni nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, frazeologik materialni tasniflashning turli mezonlari (tematik, semantik, lingvokulturologik) ko‘rib chiqilib, ularning qiyosiy tahlili keltirilgan. Maqola folklor tilshunosligi, frazeologiya va leksikologiya sohalariga oid mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *xalq dostonlari, frazeologiya, frazeologik birliklar, nazariy asoslar, talqin, tasnif, semantika, lingvokulturologiya, folklor tilshunosligi, epik matn.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭПИЧЕСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы фразеологии народных эпосов, их интерпретация и классификация. Автор анализирует семантические, структурные и стилистические особенности фразеологических единиц, встречающихся в текстах эпосов. Теоретически обосновываются национально-культурная идентичность фразеологизмов, их возможности художественного выражения и место в эпической системе. Также рассматриваются различные критерии классификации фразеологического материала (тематические, семантические, лингвокультурные), и представлен их сравнительный анализ. Статья предназначена для специалистов в области фольклорной лингвистики, фразеологии и лексикологии.*

Ключевые слова: *народные эпосы, фразеология, фразеологические единицы, теоретические основы, интерпретация, классификация, семантика, лингвокультурология, фольклорная лингвистика, эпический текст.*

THEORETICAL FOUNDATIONS, INTERPRETATION, AND CLASSIFICATION OF THE STUDY OF PHRASEOLOGY IN EPIC POETRY

Abstract. *This article discusses the theoretical foundations of the study of phraseology in folk dastans (epic poems), as well as the issues of interpretation and classification of phraseological units. The author analyzes the semantic, structural, and stylistic features of phraseological units found in dastan texts. The national-cultural specificity of phraseological units, their artistic expressive potential, and their role in the epic system of dastans are theoretically substantiated. Various criteria for classifying phraseological material (thematic, semantic, linguoculturological) are examined, and a comparative analysis of these classifications is provided. The article is intended for specialists in the fields of folklore linguistics, phraseology, and lexicology.*

Keywords: *folk dastans (epic poems), phraseology, phraseological units, theoretical foundations, interpretation, classification, semantics, linguoculturology, folklore linguistics, epic text.*

Kirish. Dostonlar tilini o‘rganish har qanday xalqning ma’naviy merosini, boy tarixini, milliy qadriyatlarini, madaniy va ma’naviy boyliklarini teran anglash imkoniyatini yaratadi. Folklor asarlar orasida eng qadimiy va til birliklariga boy bo‘lgan dostonlar etnik jarayonlarni o‘zida mujassamlashtirishi bilan bir qatorda xalq o‘tmishi, tafakkuri, hayot tarzi, madaniyati va boshqa ijtimoiy jarayonlarni o‘zida aks ettiradi. Tabiiyki xalq og‘zaki ijodi mahsuli sanalgan dostonlarda etnografik qadriyatlar uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarishlarga yuz tutgan til birliklari asl holicha aks etadi. Bu nutqdagi erkin birikmalar qatorida

til egasining tasavvuri va tafakkuri mahsuli bo‘lgan turg‘un birikma (frazeologizm, aforizm, maqol va matal)larni semantik, lingvokulturologik, lingvouslubiy va grammatik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Xalq dostonlarining amaliy ahamiyati shundaki, bu manbalar adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllari o‘rtasida tarixan mavjud bo‘lgan tafovutlarning kamayishida muhim rol o‘ynaydi. Chunki og‘zaki ijod o‘zining kuchli ta’sirini sintezlanish yo‘li blan ham o‘tkazib bordi. Folklor asarlarining sintezlanishi esa badiiy ijoddagi eng qadimiy usullardan biri bo‘lib, ijodkorlar o‘z davrining aktual muammolarini tasvirlashda ana shu ana’anaviy uslubga murojaat etganlar[1].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bugungi kungacha tilshunos olimlar tomonidan xalq og‘zaki ijodi manbalarining lingvistik imkoniyatlari to‘laqonli o‘rganilinmagan. Xususan, milliy tilning shakllanishida folklor ijodi manbalarining roli, ularning til tarixiga munosabati, til manbalari o‘rtasida tutgan o‘rni, til tizimining yuqori va quyi sathlari bo‘lgan adabiy til va dialektlarga munosabati, o‘ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar va xususan doston tiliga oid frazeologik birliklarni o‘rganish to‘laligicha o‘z yechimini topmagan. Holbuki, folklor asarlarini tadqiq etishga doir barcha ilmiy tekshirishlarda ularning uzoq o‘tmishga daxldorligi alohida e‘tirof etilishi, bu manbalar tilini tarixiy izchillik asosida tadqiq etish lozimligi ta‘kidlanadi,. Shuningdek, mazkur manbalarda turli tarixiy davrlarga doir juda ko‘p lingvistik manbalarni ham uchratish mumkinki, ular yuqorida sanab o‘tilgan masalalarga yana ham chuqurroq yondashish kerakligini taqozo etadi.

Bugungacha o‘rganilinayotgan ko‘pgina tarixiy asarlar zamirida folklor namunalari juda ko‘p uchraydi va bu tarixiy ma‘lumotlardan tadqiqotlarda tayanch dalil sifatida foydalanish tajribasi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, urf-odatlari, diniy e‘tiqodi, tili xususidagi qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan qadimgi davr tarixchilari Herodot, Kteziy, Polibiy singari olimlarning asarlarida, shuningdek, Sharqning Hamza Isfahoniy, Tabariy, Mas‘udiy, Beruniy, Saolibiy, Bal‘amiy hamda Abulg‘ozi Bahodirxon singari yetuk mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlarda tarixiy ma‘lumotlar bilan bir qatorda, xalq og‘zaki ijodi namunalari tahliliga ham keng o‘rin berilishi buning yaqqol misolidir [2]. Turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lgan “O‘rxun–Enasoy” va Uyg‘ur bitiklarida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyining “Hibat ul-haqoyiq” singari yozma manbalarda “tarixiy qo‘shiq, hikmatli so‘zlar, hatto qadimiy dostonlarning xarakterini aks ettiruvchi parchalarni uchratish mumkinligi”, og‘zaki ijod manbalarining qadimda badiiy ijod jarayoniga ham kuchli ta‘sir o‘tkazish qudratiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi [3]. Tilshunoslik tarixidan ma‘lumki folklor namunalari orqali aks etgan xalq tiliga oid boy lingvistik manbalardan qiyosiy manba sifatida foydalanish tajribasi XI asrning yirik tilshunosi Mahmud Qoshg‘ariy nomi bilan bog‘lanadi.


Jumladan, olim turkiy tillarni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy etnik guruhlar (qipchoq, o‘g‘uz, qarluq) tilida mavjud bo‘lgan lug‘aviy birliklarni to‘plash va ularning ma‘nolarini izohlash orqali semantik qirralarini ochib berish, shuningdek, dialektal tafovutlarni ko‘rsatishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanadi. Bu asarda muallif o‘zi yashagan davr va hududda mavjud bo‘lgan og‘zaki ijod namunalari bilan bir qatorda, u asar uchun ma‘lumotlar to‘plash maqsadida kezib chiqqan barcha joylarda qadimdan aytib kelinadigan folklor janrlardan ham ko‘plab parchalar keltirib o‘tadi. Qadim- qadimdan insonlar hayot va jamiyatni, turmush tajribalarini, ichki kechunmalarini, tabiat va koinot haqidagi tushunchalarni so‘z orqali tasvirlash, bayon etishni o‘rgandilar. Shunday qilib, badiiy so‘z san’ati, dastavval, xalq og‘zaki ijodi shaklida yuzaga keldi.

Biroq so‘z dastlab qanday yaratilgan bo‘lsa, hamma vaqt ham aynan o‘sha holicha saqlanib qolmadi, balki ijodiy tafakkur mahsuli sifatida qayta ishlandi, jamiyat, yangi davrning ma’lumotlari, yangi dunyoqarashlar bilan boyidi, yangi tarixiy sharoitga moslashdi, keyingi davrda yaratilgan asarlar tiliga, uslubiga ta’sir etdi. Shu bilan birga, qadimgi og‘zaki til xususiyatlarining izlari, uning “arxaik elementlari” keyingi davrda yaratilgan xalq og‘zaki ijodi asarlari tilida ham saqlanib qoldi. Xullas, xalq baxshilari tomonidan aytilgan dostonlar tili sayqallanib, yangi davr, jamiyatga muvofiqlashdi va qayta ishlandi. Doston ijro etuvchi baxshi epik an‘analarni saqlovchi, ajdodlardan kelayotgan merosni qabul qilib uni kelajak avlodlarga etkazuvchi, ijodkor ijrochi sifatida epik an‘ana doirasida dostonga ijodiy sayqal beruvchi donishmand san‘atkor hisoblanadi. Baxshi epos namunalarini an‘anaviy yo‘lda kuylar ekan unga epik bilim va epik xotira tayanch bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon tilshunosligida frazeologik metodlarning o‘rganilishi ko‘p bosqichli va ko‘p yondashuvli jarayon bo‘lib, zamonaviy tadqiqotlarda ***kompleks, kognitiv, lingvokulturologik va korpus asosidagi metodologiyalar*** ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Lisoniy madaniyatshunoslik ilk shakllanish bosqichlarida o‘zining integtariv tabiatidan kelib chiqib lingvomadaniy predmet obyektlarni o‘rganishda etnolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fan sohalari tadqiqot metod va usullaridan foydalangan bo‘lsa, keyinchalik asta - sekin o‘z metod va usullariga ega bo‘lib bordi: konseptual-ideografik tahlil,

etnomadaniy ong negizida profillash, til egasining “nutqiy portreti” va h.k. Frazeologik materiallar lingvomadaniy aspektlarini o‘rganishda qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib komponent tahlil, konseptual-ideografik tahlil, frazeo-semantik maydon, metaforik model kabi turli metod va usullardan foydalanilmoqda [4]

Jahon tilshunosligida frazeologiyani o‘rganish va tadqiq qilishda dastlab quydagi metodlarga tayanilgan va bu tilshunoslikda klassik metodologik yondashuv sifatida talqin etilgan. *(1-chizmaga qarang)*



1-rasm. Frazeologizmlarni o‘rganish va tadqiq qilish metodlari

Surxondaryo turkum dostonlari o‘zbek epik an‘anasining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri bo‘lib, ushbu turkum dostonlarini kuylagan O‘zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov o‘ziga xos ijro uslubi, boy lug‘at boyligi va jonli frazeologik tizimi bilan ajralib turadi. Uning repertuaridan “Xonoyim pari”, “Malla savdogar”, “Torkiston”, “Sanam va Gavhar”, “Ollanazar Olchinbek”, “Kelinoy” dostonlari tadqiqot ob‘ekti sifatida tanlab olindi va yuqoridagi metodologik yondoshuvlar asosida tahlil qilindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Doston tiliga xos frazeologizmlar nihoyatda ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, hech bir metod alohida holda tadqiqotda monopollik mavqega ega bo‘la olmaydi. Biroq frazeologiyada har qanday maxsus metod qo‘llanmasin, u dialektik metodning umumiy qoidalaridan kelib chiqadi. Doston tiliga oid frazeologik birliklarni tahlil qilishda shuni e‘tiborga olish kerakki, tilning u yoki bu holati sinxron tavsifi ko‘pincha qandaydir fotografik surat shaklida emas, balki rivojlanishning ozmi-ko‘pmi uzoq davri bilan bog‘liq holda amalga oshirilishini va til evolyutsiyasi faktlarini ochib berishga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etadi va doston tiliga oid frazeologik birliklarni tahlil qilishda semantik yaxlitlik yetakchlik qiladi.

Semantik yaxlitlik: Doston tilidagi frazeologizmlarning umumiy ma‘nosi uning tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nolaridan kelib chiqmasligini aniqlaydi. Masalan: – *Alqissa, Avazxon qizining bu dardli so‘zini eshitib, **tog‘day qo‘zg‘alib**, joyidan turib, otini minib, ilon tilla po‘latini qo‘liga olib, boylarning ovuliga bordi*. Abdunazar baxshi Poyonov tomonidan ijro etilgan “Malla savdogar” dostonidan olingan ushbu parchada qo‘llanilgan frazeologik birlik semantik yaxlitlikka ega – ya‘ni uning umumiy ma‘nosi tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nolaridan kelib chiqmaydi: – “Tog‘day qo‘zg‘almoq”-to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosi tog‘ning o‘rnidan qo‘zg‘alishi mumkin bo‘lmagan hodisa. Frazeologik (ko‘chma) ma‘nosi juda kuchli g‘azablanish, qattiq hayajonga tushish, ulkan kuch bilan harakatga kelish kabi ma‘nolarni shakllantiradi.

Umuman xalq dostonlari matnida qahramonlar jang oldidan yoki dushmanga qarshi chiqayotganda “tog‘day qo‘zg‘alib” iborasining qo‘llanishi, ularning g‘azabi va jasoratini ifodalaydi[5]. Usbu frazeologik birlikning semantik yaxlitligi shundaki, unda “tog” va “qo‘zg‘almoq” so‘zlari o‘z ma‘nosida emas, balki ularning qo‘shilishidan butunlay yangi, mavhum ma‘no (kuchli hissiy yoki jismoniy faollik) yuzaga kelishi tushunilinadi. Shu bilan bir qatorda, epik asarlaridagi epik formulalar ustida turli tadqiqot usullarida K.Rayxl, P.Uxov, V.Propp, B.Putilov, T.Illarionova, Yu.Bultakov, N.Efremov, L.Xayrnurova, O.Egorova, kabi bir qancha olimlar izlanishlar olib bordilar. Ular orasida taniqli rus folklorshunosi B.N.Putilovning “Epik ijrochilik” deb nomlangan ishi mavzuga keng miqyosda e‘tibor berilganligi, o‘zbek dostonchiligiga ham alohida to‘xtalganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek folklorshunosligida ham bu borada ancha ishlar amalga oshirilgan. O‘zbek xalq dostonlarida epik formulalar haqida V.Jirmunskiy, X.Zarifov dastlabki fikrlar aytgan bo‘lsalar, T.Mirzaev, J.Eshonqulov, S. Mirzaeva, Sh.Maxmadiev, Z.Eshonovalarning tadqiqotlarida ushbu mavzuga tegishli muhim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Epik formula epos tarkibidagi voqealar, holatlar, o‘y-kechinma va

mulohazalarning universal koʻrinishda doimiy takrorlanib keluvchi anʻanaviy, barqaror qonuniyat holatiga kelgan ifodali koʻrinishi, shakl va epik matnni qayta tuzish imkonini beruvchi vositadir. Folklor asarlarda doston matnlari va uni shakillantiruvchi manbalar xalq ogʻzaki ijodiyoti bilan shugʻullanuvchi koʻplab tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan va bir necha avlod vakillari ishtirok etgan murakkab jamoaviy ijod jarayoni oʻrganishgan. Ular doston voqealariga, epik bayonini jonlantirib beradi, kuchli emotsional taʻsirchanlik bagʻishlaydi. Ayni paytda epik qahramonlarning nozik ruhiy kechinmalarini tinglovchilarga yuqtirishda oʻziga xos kalit va eposda yaratilayotgan va qoʻllanilayotgan dunyoqarashni ifoda etish usuli vazifasini oʻtaydi.

Muhokama. Umuman olganda, doston matnlarini shakllantiruvchi jihatlar dunyo folklor taʻlimotida quydagi asosiy guruhlarni tashkil etadi: 1) Onomastik koʻlam birliklari; 2) Sintaktik figuralar; 3) Obrazli ifodalar. Onomastik birliklar doston matnining muhim tarkibiy qismi boʻlib, ular qahramonlar, geografik obʻektlar, qabilalar, tarixiy shaxslar va mifologik mavjudotlarning nomlarini oʻz ichiga oladi va ular epik xotiraning asosini tashkil etadi. Asosiy turlari: *Antroponimlar, Toponimlar, Etnonimlar,teonimlar, zoonimlar, fitonimlar* boʻlib, ushbu turlarning funksiyalari:- Matnni xotiraga oson joylash va anʻanaviy sxemalarni saqlash. - Eposning geografik va madaniy identifikatsiyasini belgilash. - Qahramonlarning genealogik va ijtimoiy mavqeini koʻrsatish bilan boʻgliq jihatlarni ochib beradi.

Dunyo folklorshunosligi ularni struktural, funksional va qiyosiy-tipologik jihatdan oʻrganish, doston janrining umumbashariy va milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi va zamonaviy tadqiqotlar ushbu yondashuvlarni yanada chuqurlashtirib, dostonni nafaqat matn, balki ijtimoiy-madaniy hodisa, kommunikativ tizim va kollektiv xotira shakli sifatida talqin etadi. Umuman olganda dostonlar tilining tadqiqi oʻzbek tilshunosligining muhim yoʻnalishlaridan biridir. U xalq tilining boyligi, tarixiy-madaniy qatlamlari, estetik ideal va axloqiy qadriyatlarini ochishga xizmat qiladi. Dostonlardagi frazeologik birliklar nafaqat til birligi, balki milliy leksik qadriyatlarning jonli sarchashmasidir. Shu sababli, ularni kompleks oʻrganish – til, folklor, tarix va etnografiyani uygʻunlashtirgan holda yanada keng koʻlamda tadqiq qilish zaruratini oʻygʻotadi [6].

Doston frazeologiyasining tadqiqi tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u folklor matnlarining til tizimidagi oʻziga xos oʻrnini, frazeologik birliklarning badiiy-estetik va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Dunyo tilshunosligida frazeologiya mustaqil lingvistik quyi tizim sifatida XX asrning oʻrtalaridan boshlab shakllangan boʻlsa, bugungi kunda bu soha yangi nazariy-metodologik asoslar — konstruksion grammatika, korpus lingvistikasi, kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar bilan boyimoqda.

Jahon tilshunosligi va folklorshunosligida folklor asarlarining til xususiyatini, undagi formulalar va frazeologik birliklar masalasi koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan. Folklor matnlarining oʻziga xosligi shundaki, ular ogʻzaki ijod mahsuli boʻlib, ijro jarayonida shakllangan barqaror til birliklari va stereotip ifodalar bilan ajralib turadi. Dunyo folklorshunosligida ogʻzaki epik ijod tilining formulaviy xususiyatlari birinchi marta Milman Parry tomonidan ilmiy asosda oʻrganilgan [7]. U qadimgi yunon epik shoiri Homer asarlarini tahlil qilish jarayonida birinchi marta "formula" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Parryga koʻra, formula — bu epik sheʻriyatda maʻlum bir metr va mazmunni ifodalash uchun muntazam qoʻllanadigan tayyor birikmadir.

Bu birikmalar ogʻzaki ijod jarayonida shoirlarga matnni tez va oson yaratish imkonini beradi. Keyingi vaqtlarda Milman Parry boshlab bergan tadqiqotlarni uning shogirdi Albert Bates Lord davom ettiradi. Lord ogʻzaki epik anʻanani chuqur oʻrganib, folklor ijrochilari asarni tayyor matn sifatida yodlab emas, balki formulalar tizimi asosida ijro jarayonida yaratishini koʻrsatadi[8]. Rus folklorshunosligida ham folklor matnlari tilining oʻziga xos jihatlari, xususan, barqaror formulalar va frazeologik birliklar muhim ilmiy tadqiqot obʻekti boʻlib kelgan. Bu borada Vladimir Proppning ishlari alohida ahamiyatga ega. U ertaklarning strukturasi va poetikasini oʻrganib, folklor matnlarida takrorlanuvchi formulalar va anʻanaviy til birliklari mavjudligini koʻrsatgan. Proppning tadqiqotlari folklor poetikasini oʻrganishda muhim nazariy asos yaratdi[9].

Xulosa. Bugungi kunga kelib xalq ogʻzaki ijodiga doir asarlardagi frazeologik birliklarning oʻzaro bogʻliq funksiyalari tizimini, ularning tematik va etimologik jihatdan oʻrganish muammosi chuqur monografik koʻlamda oʻrganishni talab etadi. Hozirgi zamon tilshunosligida xalq dostonlari tilidagi frazeologik birliklarni kompleks tahlil qilish metodologiyasi hali ishlab chiqilmagan, bu esa frazeologik birliklarning tadrijiy taraqqiyoti, nutqidagi funksiyasini aniqlash hamda asoslash imkonini bermaydi.

Tilimizdagi frazeologik birliklarni oʻrganish, oʻzbek tilining frazeologik boyligini chuqur va har tomonlama tahlil qilish bilan birga tilning muhim birliklari, soʻzning leksik maʼnosi, tabiati, soʻz hosil qilish va etimologiyaning turli masalalarni hal qilishga imkon beradi. Frazeologiya lisoniy hodisa

sifatida so‘zlar bilan va bir-biri bilan bog‘lanuvchi va o‘zaro bog‘liq birliklarning muayyan tizimi ekan, frazeologik birliklar turli tomondan o‘rganilishi lozim.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, jahon va o‘zbek tilshunosligida olimlarimiz tomonidan frazeologik birliklarni keng va tor ma’noda tushunish, tahlil qilish holatlari mavjud. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni tor ma’noda tushunish-faqat ko‘chma ma’noda qo‘llangan turg‘un birikmalar nazarda tutiladi[10]. Umuman, bizningcha, folklor asarlar tiliga oid frazeologik birliklarni tor ma’noda tushunish va tahlil qilish etarlicha samara bermaydi. Xalq dostonlari tiliga oid frazeologik birliklarni keng ma’noda tushunish, tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotimizda xalq dostonlari tiliga oid bo‘lgan frazeologik birliklarni keng ma’noda tahlilga olganmiz.

O‘zbek tilshunosligida xalq dostonlari leksikasi uslubiy, lingvostatistik, lingvokulturologik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, dostonlarda uchraydigan frazeologik birliklar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘liq o‘rganilmagan. Jumladan, tilshunosligimizda xalq dostonlarining til xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ayrim tadqiqotlar mavjud ammo, dostonda qo‘llangan frazeologik birliklarni tizimli tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. *Саримсоқов Б. О типологии фольклоризмов. – Тошкент, 1984. – С. 270.*
2. *Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент.1976.йил 43 б.*
3. *G.Sh. Djurakulova. O‘zbek xalq dostonlarida epik formulalar tasnifi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (3), March., 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz.*
4. *Nurmuhammedov Y. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.– 3 b.*
5. *Axmedov. H.Y. “Xalq dostonlari frazeologiyasi” (Surxondaryo turkum dostonlari misolida). Monografiya. – Termiz: Kitob nashr, 2026.– 166 - b.*
6. *Axmedov H. “Alpomish dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. –Termiz, 2023. – 19 b.*
7. *M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent: «Barkamol fayz media», 2017.*
8. *Lord, A. B. The Singer of Tales. Cambridge: Harvard University Press, 1960.*
9. *Propp, V. Morphology of the Folktale. Austin: University of Texas Press, 1968.*
10. *Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. – Тошкент, 2018. – Б. 100.*